



O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING YO'LGA QO'YILISHI

Temirov Abdumalik Ikrom o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'limning yurtimizdagi huquqiy-me'yoriy asoslari, inklyuziv ta'lim sohasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat, imkoniyati cheklangan insonlarni ta'lim sohasiga integratsiya qilish usullari, xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning pedagogik mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, integratsiya, reabilitatsiya, korreksiya, imkoniyati cheklangan bola, pedagog xodim.

INTRODUCTION OF INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract. The article analyzes the legal and normative foundations of inclusive education in our country, the policy implemented by our state in the field of inclusive education, the methods of integrating people with disabilities into the field of education, the pedagogical essence of the development of inclusive education in the public education system.

Keywords. Inclusive education, integration, rehabilitation, correction, disabled child, pedagogue worker.

Biz yashab turgan jamiyatda sog'lom insonlar qatorida imkoniyati cheklangan insonlar ham mavjud. Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz har kuni yuradigan yo'llardan ayrim insonlar yura olmaydi, biz ko'radigan borliqdagi go'zallikni ular ko'ra olishmaydi, atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni eshita olishmaydi. Ammo bu insonlar ham sog'lom bo'lib voyaga yetishi, hamma qatori borliq go'zalligidan bahramand bo'lib yashashi mumkin edi, biroq salbiy omillar ta'sirida ular bundan bebahra qolishgan. Muayyan sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan imkoniyati cheklangan insonlarni jamiyatdan alohida e'tiborsiz holda ajratib qo'yish mumkin emas.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ijtimoiy jamiyatga adaptatsiyalash, imkoniyatlaridan foydalanib o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada foydasi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi".

Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Jamiyatimizning bir bo'laki bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim tarbiya berish, kasb-hunarga yo'llash,



sogʻlom bolalar qatori oʻrin olib, oʻz qobiliyati va imkoniyatlaridan foydalana oladigan inson qilib voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining bir boʻlagi boʻlib hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida inklyuziv taʼlimni joriy qilish ishlari dastlab 1996-yilning noyabr oyida BMTning YUNESKO ishlari boʻyicha Oʻzbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda “Maxsus taʼlim sohasida inklyuziv usullar” mavzusida Xalq taʼlimi vazirligi, Respublika taʼlim markazi bilan hamkorlikda Respublika seminari oʻtkazilishi bilan amalga oshirila boshladi. 1998-yilning oktyabr oyida xalqaro YUNESKO tashabbusi bilan Buxoro shahrida yirik konferensiya oʻtkazildi. Konferensiya alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, reabilitatsiya qilish, taʼlimga jalb qilish, moddiy, texnikaviy yordamlarni tashkil qilish va ularni toʻlaqonli jamiyatga moslashtirishga oid turli tashkiliy uslubiy ishlarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda koʻp tarmoqli aloqalar oʻrnatish maqsadida tashkil etildi.

Ushbu xalqaro konferensiyada Oʻzbekiston Respublikasi xalq va uning tasarrufidagi turli maʼmuriy tashkilot vakillari ham ishtirok etib, oʻz tajribalari bilan fikr almashdilar va respublikada ushbu muammoni hal qilish masalalari boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu bois Oʻzbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarni toʻlaqonli maxsus taʼlimga jalb qilish va integratsiya usulida taʼlim olish 2001-2002-yillarda birmuncha faollashdi.

2001-yil 21-23-noyabr kunlari Toshkent shahrida oʻtkazilgan “Alohida yordamga muhtoj bolalarni maʼnaviy va estetik tarbiyalash” mavzusidagi xalqaro konferensiyada turli xorijiy mamlakatlar, Qozogʻiston, Rossiya, xorijiy davlatlarning ekspertlari qatnashib, oʻz fikr-mulohazalari bilan oʻrtoqlashadilar. Konferensiyada qatnashgan shahar va viloyat xalq taʼlimi boshqarma vakillari, “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va mehnat vazirligi”, “Sogʻliqni saqlash vazirligi” mutaxassislari, oliy taʼlim professor oʻqituvchilari, malaka oshirish institutlari xodimlari, nodavlat jamoat tashkilotlari, nogiron bolalari boʻlgan ota-onalar, matbuot va axborot vositalari xodimlari qatnashib inklyuziv taʼlim borasida hozirgi kunda vujudga kelayotgan muammolar ustida toʻxtalib, bahs-munozara yuritdilar. Bu konferensiyada imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatlari, mehnat natijalari, sanʼat, sportda erishgan yutuqlari va mahoratlari namoyish etildi.

Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida 5 ta tajriba-resurs markazi hamda 15 ta tajriba maktablari tashkil etilib, ularga 800 nafardan ortiq bolalar qamrab olindi.

Respublikamizda 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirdagi “Taʼlim toʻgʻrisida” gi qonun qabul qilindi. Qabul qilinishidan oldin esa, Oʻzbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv taʼlim tamoyillariga muvofiqligi boʻyicha tahlili oʻtkazildi. “Taʼlim toʻgʻrisida” gi 20-moddasida “Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar uchun taʼlim tashkilotlarida inklyuziv taʼlim tashkil etiladi”.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi (PQ-4860-son, 2020-yil 13-oktyabr) qarori tasdiqlandi.

Ushbu qaror doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta’limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi;

- davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta’lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

- inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta’lim sifati, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;

- inklyuziv ta’lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o‘zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

- o‘quvchilar ta’limiy ehtiyojlarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta’lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

- inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning teng huquqli jamiyat a’zosi sifatida umumta’lim muassasalarida bilim olishi ta’minlanadi;

- pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

- inklyuziv ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi;

- inklyuziv ta’lim muassasalarining internet tarmog‘iga to‘liq ulanishi ta’minlanadi;

- inklyuziv ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni qabul qilish va boshqa ta’lim muassasalariga o‘tkazish uchun davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmi joriy etiladi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, kasb-hunarga yo‘naltirish, jamiyatga uyg‘unlashtirish masalalari davlat siyosatining dolzarb yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Chunki O‘zbekistonda taraqqiyotning besh tamoyilidan biri - kuchli ijtimoiy siyosat maqsadli yo‘lga qo‘yilganligi bois, aholining ko‘makka muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Bugungi kunda Respublika bo‘yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-



интернатlarda 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi. 150 nafardan ortiq tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1,3 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi.

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etishga doir 3 ta o'qitish moduli kiritildi. 2 ming nafardan ortiq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi.

Mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi bo'lajak boshlang'ich ta'lim mutaxassislarini ham juda quvontirdi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarori.
4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim" Qo'qon-2023.
5. X.N.Muzaffarova, D. Tangirova "Inklyuziv ta'lim". library.samdukf.uz. 10-noyabr 2022-yil.